

Davlat moliyaviy boshqaruvida maqsadli jamg‘armalarning ahamiyati va rivojlanish istiqbollari

Baxodir Abdurapiyevich Nurmatov
O‘zbekiston Respublikasi bank moliya akademiyasi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy boshqaruvi tizimini takomillashtirish jarayonida maqsadli jamg‘armalarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Xususan, Pensiya jamg‘armasi misolida ularning ijtimoiy barqarorlikni ta’minalashdagi funksiyalari va moliyaviy oqimlarga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda statistika ma’lumotlari hamda xalqaro tashkilotlarning hisobotlari asosida qiyosiy va dinamik tahlil usullari qo’llanilgan.. Shuningdek, xalqaro tajribaga tayangan holda O‘zbekistonda nodavlat pensiya jamg‘armalarini rivojlantirish, moliyaviy diversifikatsiyani ta’minalash hamda nazorat va shaffoflikni kuchaytirish zarurligi ko‘rib chiqilgan

Kalit so‘zlar: davlat moliyaviy boshqaruvi, davlat byudjeti, maqsadli jamg‘armalar, Pensiya jamg‘armasi, byudjetdan tashqari fondlar, moliyaviy barqarorlik, ijtimoiy himoya, norasmiy bandlik, inflyatsiya, demografik bosim, xalqaro tajriba, ko‘p ustunli pensiya modeli, moliyaviy diversifikatsiya

The importance and development prospects of trust funds in public financial management

Baxodir Abdurapiyevich Nurmatov
Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract: The article analyzes the role and importance of trust funds in the process of improving the public financial management system in the Republic of Uzbekistan. In particular, using the example of the Pension Fund, their functions in ensuring social stability and their impact on financial flows are considered. The study used comparative and dynamic analysis methods based on statistical data and reports of international organizations. Also, based on international experience, the need to develop non-state pension funds in Uzbekistan, ensure financial diversification, and strengthen control and transparency was considered.

Keywords: state financial management, state budget, trust funds, Pension Fund, extra-budgetary funds, financial stability, social protection, informal employment, inflation, demographic pressure, international experience, multi-pillar pension model, financial diversification

So‘nggi yillarda mamlakatimizda davlat moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish, budget intizomini kuchaytirish hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish masalalari ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu jarayonda davlatning maqsadli jamg‘armalari alohida o‘rin tutadi. Chunki ular byudjetdan tashqari moliyaviy resurslarni shakllantirish, iqtisodiy va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish, aholining turmush darajasini yaxshilash hamda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim mexanizm vazifasini bajaradi.

Maqsadli jamg‘armalar nafaqat byudjet yuklamasini kamaytiradi, balki moliyaviy resurslarni aniq yo‘nalishlarga - pensiya ta’minoti, bandlikni oshirish, sog‘liqni saqlash, infratuzilma rivoji, ijtimoiy himoya kabi sohalarga yo‘naltirish imkonini beradi. Shu jihatdan ular davlat moliyaviy boshqaruvining samaradorligini oshirish, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash hamda aholining ijtimoiy himoyasini ta’minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

Xususan, Pensiya jamg‘armasi misolida ko‘rish mumkinki, jamg‘armaning samarali boshqarilishi aholining barqaror pensiya ta’minotini kafolatlash bilan birga, iqtisodiyotning moliyaviy oqimlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bois, maqsadli jamg‘armalarning o‘rni, ahamiyati va rivojlanish istiqbollarini ilmiy asosda tahlil qilish bugungi kunda dolzARB masala hisoblanadi.

So‘nggi yillarda mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar fonida byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarning o‘rni tobora ortib bormoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ularning umumiylar daromadlari konsolidatsiyalashgan byudjetning 33,7-35,7 foizigacha yetmoqda. Dastlab bu jamg‘armalar aniq ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni moliyalashtirish zarurati bilan vujudga kelgan.



1-rasm. Byudjetdan tashqari jamg‘armalarni shakllantirish manbalarining guruhlanishi¹

¹ Nurmuxamedova B.I., Xamdamov Sh.K. Davlat moliyasi. Darslik. –T.: IQTISOD-MOLIYA, 2021. – 148-b.

Masalan, Ijtimoiy sug‘urta fondi negizida byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tashkil etilgan. Bunday fondlar byudjetdan ajralib chiqib, “nobyudjet fondlar” yoki “byudjetdan tashqari fondlar” sifatida tanilga

Mazkur tadqiqotda davlat moliyaviy boshqaruvida maqsadli jamg‘armalarning ahamiyati va ularning rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish uchun kompleks yondashuv qo‘llanildi. Avvalo, nazariy asoslarni aniqlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari va Moliya vazirligi tomonidan e’lon qilingan statistik ma’lumotlar o‘rganildi. Shuningdek, Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (XVJ), Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda boshqa xalqaro tashkilotlarning maqsadli fondlar faoliyati bo‘yicha tahliliy hisobotlari solishtirma o‘rganish manbai sifatida foydalanildi.


Tadqiqotda qiyosiy tahlil, dinamik qatorlarni tahlil qilish, foiz ko‘rsatkichlari usuli, shuningdek, ekspert baholari va sotsiologik kuzatuv elementlari dan foydalanildi. Ushbu metodlar yordamida maqsadli jamg‘armalarning hozirgi holati, moliyaviy resurslarni shakllantirish mexanizmlari va ularning iqtisodiy rivojlanishga qo‘shayotgan hissasi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston Respublikasida maqsadli jamg‘armalar, xususan Pensiya jamg‘armasi davlat moliyaviy boshqaruvida alohida o‘rin tutadi. Ushbu jamg‘arma aholining ijtimoiy himoyasini ta’minalash, pensiya va nafaqa to‘lovlarini muntazam moliyalashtirishda muhim manba sifatida xizmat qilmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Pensiya jamg‘armasining moliyaviy barqarorligiga quyidagi muammolar salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda:

- Daromad manbalarining chegaralanganligi - asosan yagona ijtimoiy to‘lov va sug‘urta badallariga tayanadi;
- Norasmiy bandlik - aholining muayyan qismi rasmiy mehnat munosabatlariga ega emasligi sababli pensiya tizimiga muntazam badal to‘lamaydi;
- Inflyatsiya ta’siri - nafaqa va pensiya miqdorlarini muntazam indeksatsiya qilish zarurati jamg‘arma xarajatlarini oshirmoqda;
- Demografik bosim - pensiya yoshidagi aholining ulushi ortib bormoqda.

Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatdiki, ko‘plab mamlakatlarda pensiya tizimlarini moliyaviy barqarorlashtirish uchun ko‘p ustunli model qo‘llaniladi: davlat pensiyasi bilan bir qatorda xususiy pensiya jamg‘armalari va korporativ pensiya rejalaridan foydalaniladi. O‘zbekistonda esa hozircha davlat pensiya tizimi asosiy rol o‘ynamoqda, lekin bosqichma-bosqich nodavlat pensiya jamg‘armalarini rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.



2-rasm. Pensiya va nafaqa oluvchilar soni o'zgarishi, ming nafar hisobida²

1-jadval

Pensiya jamg'armasi xarajatlari o'zgarish dinamikasi, mln. so'mda³

Nº	Ko'rsatkichlar	2022 y	2023 y	2024 y	2025 y
1	Fuqarolarga davlat pensiyalarining barcha turlari uchun to'lovlarni to'lash, shuningdek pensiya va nafaqalarni yetkazib berish bo'yicha xarajatlar	45 282,5	53 573,7	64 094,8	74 939,3

Shunday qilib, natijalar shuni ko'rsatadiki, Pensiya jamg'armasi davlat moliyaviy boshqaruvida muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, uning barqarorligi uchun yangi manbalarni jalb qilish, tizimni diversifikatsiya qilish va xalqaro tajribadan foydalanish zarur.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida davlat moliyaviy boshqaruvining samaradorligini oshirish, budget intizomini kuchaytirish va resurslardan oqilona foydalanish ustuvor vazifa sifatida ilgari surilmoqda. Ushbu jarayonda davlatning maqsadli jamg'armalari, ayniqsa Pensiya jamg'armasi, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim moliyaviy institut sifatida maydonga chiqmoqda. Ular orqali byudjet yuklamasi yengillashtirilib, mablag'lar aniq maqsadlarga - pensiya va nafaqa to'lovlari, sog'lijni saqlash, infratuzilma rivoji, bandlikni oshirish hamda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga yo'naltirilmoqda.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Pensiya jamg'armasining barqaror faoliyati aholining ijtimoiy ta'minotini kafolatlash bilan bir qatorda, mamlakat

² [³ \[ISSN 2181-0842 | IMPACT FACTOR 4.526\]\(https://pfuru.uz-O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.</p>
</div>
<div data-bbox=\)](https://pfuru.uz-O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.</p>
</div>
<div data-bbox=)

moliyaviy oqimlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, jamg'armaning moliyaviy imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar ham mavjud. Jumladan: daromad manbalarining chegaralanganligi, norasmiy bandlikning yuqori darajada saqlanib qolishi, inflyatsiya ta'siri va demografik bosim jamg'arma oldida jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun ko'p ustunli model (davlat, xususiy va korporativ pensiya jamg'armalarining uyg'unligi) samarali qo'llanilmoqda. O'zbekistonda ham bosqichma-bosqich nodavlat pensiya jamg'armalarini rivojlantirish, aholini ushbu tizimga jalb qilish va moliyaviy diversifikatsiyani ta'minlash zarur.

Shu nuqtai nazardan, tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Daromad manbalarini kengaytirish va diversifikasiya qilish - Pensiya jamg'armasining barqaror faoliyati uchun yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallaridan tashqari qo'shimcha manbalar, jumladan investitsion faoliyatdan tushumlar, moliyaviy bozor instrumentlari ham jalb qilinishi lozim.

2. Norasmiy bandlikni qisqartirish - rasmiy mehnat munosabatlarini kengaytirish, ishchi kuchining huquqiy himoyasini kuchaytirish orqali pensiya tizimiga muntazam tushumlarni ta'minlash mumkin.

3. Moliyaviy intizom va shaffoflikni kuchaytirish - jamg'arma mablag'laridan foydalanishda hisobdorlik va nazorat tizimlarini takomillashtirish, elektron monitoring mexanizmlarini keng joriy etish muhim ahamiyatga ega.

4. Xalqaro tajribani joriy etish - ko'p ustunli pensiya modeli asosida nodavlat pensiya jamg'armalari va korporativ pensiya rejalarini shakllantirish aholining uzoq muddatli ijtimoiy ta'minotini yanada ishonchli qilish imkonini beradi.

5. Demografik bosimni yumshatish - pensiya yoshini bosqichma-bosqich optimallashtirish, mehnat bozorida faol aholining ulushini oshirish orqali tizimning moliyaviy yuklamasini kamaytirish mumkin.

Umuman olganda, davlat maqsadli jamg'armalari, jumladan Pensiya jamg'armasi, O'zbekiston moliyaviy tizimining ajralmas bo'g'ini sifatida nafaqat ijtimoiy himoya tizimining mustahkamlanishiga, balki milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ularning samarali boshqaruvi aholining turmush darajasini oshirish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi omil bo'lib qolmoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya ko'rsatkichlari. - Toshkent, 2023.

2. Karimov A. Davlat moliyasida byudjetdan tashqari jamg‘armalarning o‘rni // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. - Toshkent, 2022. - №4. - B. 45-53.
3. The World Bank. The Future of Pension Systems in Emerging Economies. - Washington, 2021. - 145 p.
4. Asian Development Bank. Social Protection Index for Committed Poverty Reduction. - Manila, 2020. - 112 p.
5. OECD. Pensions at a Glance 2023: OECD and G20 Indicators. - Paris : OECD Publishing, 2023. - 220 p.
6. Barr N., Diamond P. Reforming Pensions: Principles and Policy Choices. - Oxford : Oxford University Press, 2008. - 245 p.
7. Jumaniyazov Inomjon To‘raevich, Abdullaev Aybek Nazarbaevich, Sabirov Mirza Qilichbayevich, & Shavkat Bayramovich Babaev. (2024). Importance of social principles of sovereign wealth funds. Global Scientific Review, 26, 46-54.
8. Aminova, N. U. (2021). Development of foreign economic activities in the republic of uzbekistan through attracting foreign investment. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(8), 216-221.
9. Jumaniyazov Inomjon To‘rayevich. (2024). ESG IN SOVEREIGN WEALTH FUND INVESTMENTS. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 41(2), 117-124.
10. ZM Shaikh, S Ramadass, B Prakash, JI Turayevich Data-Driven Decision Making in Stock Portfolio Management: LSTM and Monte Carlo Simulation in Action- Fluctuation and Noise Letters, 2023
11. Jumaniyazov, I. T. (2019). The impact of Uzbekistan Reconstruction and development fund’s expenditure on GDP growth. Science, research, development № 16. Monografiya pokonferencyjna.
12. Oppog‘ov, J. A., & Jumaniyazov, I. T. (2024). Moliya tizimida g‘aznachilik faoliyatini rivojlanish istiqbollari. Science and Education, 5(5), 504-512.
13. Inomjon To‘raevich Jumaniyazov, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, & Shavkat Bayramovich Babaev. (2024). METHODOLOGICAL BASIS FOR FORECASTING THE TAX POTENTIAL OF THE RUSSIAN FEDERATION. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 27, 100-107.
14. Abdullaev, A. N., Jumaniyazov, I. T. R., Sabirov, M. Q., & Babaev, S. B. (2024). DIRECTIONS FOR IMPROVING THE PROCESS OF PERSONAL INCOME TAX FORECASTING. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 28, 233-243.
15. Jumaniyazov, I. T. (2019). The impact of Uzbekistan Reconstruction and development fund’s expenditure on GDP growth. Science, research, development № 16. Monografiya pokonferencyjna.

16. Aminova, N. U. Q., Zukhurova, M. S. Q., & Tulagankhujaeva, I. S. Q. (2021). INVESTMENT PROCESS AND INVESTMENT POLICY. *Science and Education*, 2(2), 219-225.
17. Qizi, A. N. U. (2023). ISSUES OF FINANCING OF INVESTMENT PROJECTS ON THE BASIS OF SYNDICATE LOANING. *Open Access Repository*, 10, 8-14.
18. Aminova, N. XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH ORQALI O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH. Ўзбекистон республикаси сугурта бозори учун кадрлар тайёрлашнинг ҳозирга ҳолати, муаммолари ва ривожланиш истиқболлари, 132.
19. B. Gupta et al., "Channel Modelling for Holographic MIMO-Enabled IOT Devices in 6G Networks," in *IEEE Transactions on Consumer Electronics*, doi: 10.1109/TCE.2025.3594902
20. Nilufar Aminova. (2024). Loyihalarni Islom modeli asosida moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. *Yashil Iqtisodiyot Va Taraqqiyot*, 2(4), 9-16
21. Jumaniyazov, I., & Xaydarov, A. (2023). The importance of social insurance in social protection. *Science and Education*, 4(1), 1033-1043. Retrieved from <https://opencourse.uz/index.php/sciedu/article/view/4941>
22. Inomjon, J. (2023). GENDER BYUDJETLASHTIRISHDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING O'RNI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 1187-1191.
23. Бахронов, Ж., & Жуманиязов, И. (2023). Партиципатор бюджетлаштириш ва уни Ўзбекистонда қўллаш долзарбилиги. *Science and Education*, 4(2), 1486-1493. Retrieved from <https://opencourse.uz/index.php/sciedu/article/view/5234>
24. Davlatboyeva, M. S. qizi, & Jumaniyazov, I. T. (2023). Yashil byudjetlashtirish va uni O'zbekistonda joriy etish istiqbollari. *Science and Education*, 4(2), 1509-1516. Retrieved from <https://opencourse.uz/index.php/sciedu/article/view/5237>
25. Jumaniyazov, I. T. (2019). Evaluation criteria for the efficiency of sovereign funds. *Global science and innovations 2019: Central Asia. In International scientific conference.-Nur-Sultan (Kazakhstan) (Vol. 340, pp. 226-229)*.